I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-iyun oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 15 642,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 foizga teng bo'ldi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida YAHM deflyator indeksi 112,5 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–*milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda
2023- yil yanvar-iyun oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 106,3 foiz (umumiy ulushning 38,6 foizi), jami xizmatlar - 103,6 foiz (umumiy ulushning 38,6 foizi), sanoat – 104,4 foiz (umumiy ulushning 15,7 foizi) ni tashkil qildi.

YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 2,4 f.p. (2022- yil yanvar-iyunda – 1,3 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,6 f.p. (2022- yil yanvar-iyunda – 1,9 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,5 f.p. (2022- yil yanvar-iyunda – 0,5 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 1,4 f.p. 2022- yil yanvar-iyunda – 1,7 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yil yanvar-iyunda –0,6 f.p.)ga ko‘paydi.

Yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

	mlrd. so‘m		*2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan foiz hisobida*
	2022- yil yanvar-iyun	*2023- yil yanvar-iyun*	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**13 217,2**	**15 642,2**	**105,2**
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	12 755,7	15 205,5	105,0
mahsulotlarga sof soliqlar	461,5	436,7	110,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	12 755,7	15 205,5	105,0
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**4 981,8**	**5 862,8**	**106,3**
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**2 848,8**	**3 466,7**	**105,2**
sanoat	1 960,4	2 392,7	104,4
qurilish	888,4	1 074,0	107,0
Xizmatlar	**4 925,1**	**5 876,0**	**103,6**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	760,8	887,3	102,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	810,4	949,5	105,7
boshqa xizmat tarmoqlari	3 353,9	4 039,2	103,2

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga asosiy ta’sir qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (o‘sish sur’ati 106,3 foiz) va xizmatlar (o‘sish sur’ati 103,6 foiz) tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 68,3 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2022- yil yanvar-iyun oylarida 68,9 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi, % da

(*jamiga nisbatan foizda*)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasining ulushi 38,6 foizni tashkil qildi va 2022- yilning yanvar-iyun oylariga (39,1 foiz) nisbatan 0,5 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo‘shgan holda) ulushi 22,8 foizni tashkil qilib, 2022 - yil yanvar-iyun oylariga (22,4 foiz) nisbatan 0,4 punktga ko‘pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 38,6 foizni tashkil qildi va o‘tgan yilga (38,5 foiz) nisbatan 0,1 punktga ko‘pdir.

2022-yil yanvar-iyun



2023-yil yanvar-iyun



Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-iyun oylari, jamiga nisbatan ulushi)

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘shgan hissasi 3,3 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan.

Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, *foizda*



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 960,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,3 foiz o‘sishga erishildi.





2023- yil yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 38,6 foiz (2022- yil yanvar-iyun oylarida 38,5 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 5,8 foizni (2022- yil yanvar-iyun oylarida 6,0 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 6,2 foizni (2022- yil yanvar-iyun oylarida 6,4 foiz), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 26,6 foizni (2022-yil yanvar-iyun oylarida 26,1 foiz) tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

(2023- yil yanvar-iyun)

	O‘zbekiston Respublikasi		*Xorazm viloyati*		*Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da*	
	mlrd. so‘m	*o‘sish sur’ati % da*	*mlrd. so‘m*	*o‘sish sur’ati % da*	*yanvar-iyun 2022 - y.*	*yanvar-iyun 2023- y.*
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	469 619,0	105,6	15 642,2	105,2	3,3	3,3
Sanoat	293 614,3	105,6	9 633,7	104,4	3,3	3,3
Iste’mol mollari	84 774,3	107,0	5 766,6	100,3	6,1	6,8
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	154 467,4	103,8	10 026,4	106,4	6,5	6,5
Investitsiyalar	139 104,6	107,9	3 953,7	99,6	3,0	2,8
Qurilish ishlari	68 139,2	104,8	2 482,0	107,0	3,4	3,6
Chakana tovar aylanmasi	133 174,7	106,9	5 160,5	103,3	4,0	3,9
Xizmatlar, jami	212 840,6	112,3	5 877,3	109,5	2,9	2,8
Eksport (mln. AQSh doll.)	12 140,0	123,0	162,7	128,3	1,3	1,3
Import (mln. AQSh doll.)	17 030,5	117,0	292,5	117,1	1,7	1,7

2023- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 15 642,2 mlrd. so‘mni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,3 foizni tashkil qilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 633,7 mlrd. so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,3 foizini) tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 104,4 foizni tashkil etdi. 2023-yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 5 766,6 mlrd. so‘mlik xalq iste’mol mollari (respublikada xalq iste’mol mahsulotlarining 6,8 foizi) ishlab chiqarilib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 100,3 foizni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 10 026,4 mlrd. so‘mni (respublikada qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 6,5 foiz) tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,4 foizga etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 953,7 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o‘sish sur’ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 99,6 foizni (respublikadagi ulushi 2,8 foiz) tashkil etdi.

2023-yil yanvar-iyun oylarida 2 482,0 mlrd. so‘mlik (respublikadagi ulushi 3,6 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,0 foizni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 160,5 mlrd. so‘mni (respublikadagi ulushi 3,9 foiz), o‘sish sur’ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 103,3 foizni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 5 877,3 mlrd. so‘mni, (respublikadagi ulushi 2,8 foizni) tashkil qildi va 2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish 109,5 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 455,2 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,6 foizni), o‘sish sur’ati 120,9 foizni, jumladan: eksport – 162,7 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), o‘sish sur’ati 128,3 foizni, import– 292,5 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,7 foizni), o‘sish sur’ati 117,1 foizni tashkil etdi.